

“TASDIQLAYMAN”

Samarqand viloyati statistika
boshqarmasi boshlig‘i



Sh.A.Abdiyev

**Samarqand viloyati statistika boshqarmasining korrupsiyaga qarshi
kurashish bo‘yicha idoraviy komissiyasining navbatdagi yig‘ilishi**

BAYONI № 8

2023-yil 18-sentabr

Samarqand shahri

Raislik qiluvchi: Sh.A.Abdiyev Boshqarma boshlig‘i

Qatnashdilar: Boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosarlari,
Komissiya a’zolari va boshqarma
bo‘lim boshliqlari (ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-sonli Qonunining mazmun-mohiyatini o‘rganish hamda “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish barchamizning burchimizdir” va O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining 2023-yil 23-avgustdagi 10-sonli bayonnomasining ilovalarida belgilangan vazifa va topshiriqlarni yig‘ilish ishtirokchilariga tushuntirish to‘g‘risida.

(Sh.Abdiyev, T.Sidikov, M.Salimov, Z.Davronov, F.Eshonkulov, Sh.Abdiyev)

Kun tartibidagi yig‘ilishda boshqarma boshlig‘i Sh.Abdievning O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-sonli Qonunining mazmun-mohiyatini o‘rganish hamda “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish barchamizning burchimizdir” va O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining 2023-yil 23-avgustdagi 10-sonli bayonnomasining ilovalarida belgilangan vazifa va topshiriqlar yuzasidan axboroti tinglandi.

Shuningdek, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 5-moddasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, ular: aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlashdan iborat ekanligini ta’kidlab o‘tdi.

Jumladan, ushbu Qonunning maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat ekanligini ta'kidlab o'tdi.

Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjalardan iboratligi hamda ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

korrupsiya — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaga oid huquqbazarlik — korrupsiya alomatlariga ega bo'lган, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

manfaatlar to'qnashuvi — shaxsiy manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lган hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lган vaziyat hisoblanishi to'g'risida ham to'xtalib o'tdi.

Shuningdek, yig'ilish davomida 2023-yilning 3-chorak yakuni bilan qabul qilinadigan statistika hisobotlari shakllarini onlayn qabul qilish va qayta ishlash jarayonida korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymasliklari yuzasidan barcha tizim xodimlari ogoh bo'lishi hamda tizimda korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni o'z vaqtida bartaraf etish yuzasidan mas'ullarga nisbatan tegishli ko'rsatma va topshiriqlarni belgilab berdi.

Yig'ilish kun tartibidagi masalalarni muhokama qilib,

QAROR QILADI:

1. Boshqarma boshlig'i Sh.Abdievning O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli Qonunining mazmun-mohiyatini o'rganish hamda "Korruptsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish barchamizning burchimizdir" va O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining 2023-yil 23-avgustdagи 10-sonli bayonnomasining ilovalarida belgilangan vazifa va topshiriqlar yuzasidan bergen axboroti tizimda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Dasturiy texnik-ta'minot va ma'lumotlarni saqlash markazi (U.Sadirov) va Axborot xizmati (F.Eshonkulov):

Boshqarmaning rasmiy veb-saytida korruptsiyaga qarshi kurashishga oid amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni muntazam ravishda yangilab borish vazifasi topshirilsin.

3. Mazkur yig'ilish qarorlari ijrosini nazorat qilish boshqarmaning korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiyasi a'zolari zimmasiga yuklatilsin.

Komissiya kotibi

X.Xolmo'minov